Qabul qilindi: 14-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 18-noyabr 2026-yil

DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: XORIJIY TAJRIBA

Amirova Laziza Abdurashid qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi
E-mail: amirovalaziza1809@gmail.com



Annotatsiya. Maqolada davlat boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Kanada va Niderlandiya tajribasi qiyosiy o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitiga mos jihatlari aniqlangan. 2026-yil 21-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-1115-son Qonun bilan kiritilgan o‘zgarishlar baholanib, milliy qonunchilikda saqlanib qolayotgan bo‘shliqlar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, davlat boshqaruvi, algoritmik shaffoflik, avtomatlashtirilgan qaror, xavfga asoslangan yondashuv, AI Act, algoritmlar reestri, gibrid model.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы правового регулирования применения искусственного интеллекта в государственном управлении. Проведён сравнительный анализ опыта Европейского союза, Казахстана, Республики Корея, Канады и Нидерландов. Дана оценка изменениям, внесённым Законом Республики Узбекистан № ЗРУ-1115 от 21 января 2026 года, и выявлены сохраняющиеся пробелы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, государственное управление, алгоритмическая прозрачность, автоматизированное решение, риск-ориентированный подход, AI Act, реестр алгоритмов, гибридная модель.

Abstract. The article examines the legal regulation of artificial intelligence in public administration. The experience of the European Union, Kazakhstan, the Republic of Korea, Canada and the Netherlands is compared. The amendments introduced by Law No. ZRU-1115 of 21 January 2026 are assessed and the remaining gaps in Uzbek legislation are

identified.

Keywords: artificial intelligence, public administration, algorithmic transparency, automated decision, risk-based approach, AI Act, algorithm register, hybrid model.

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari xususiy sektordan davlat boshqaruviga ham faol kirib kelmoqda. Stanford universiteti Inson markazli sun’iy intellekt instituti (HAI) hisobotiga ko‘ra, 2025-yilda global korporativ sun’iy intellekt investitsiyalari 581,7 milliard dollarga yetib, bir yil ichida 130 foizga oshgan[1]. Bunday sur’at davlatlar oldiga yangi savolni qo‘ymoqda: algoritmlar fuqarolar hayotiga ta’sir qiluvchi qarorlarda ishtirok etganda, fuqaro huquqlari qanday himoya qilinadi?

O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi siyosat bosqichma-bosqich shakllanib keldi. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi[2] umumiy yo‘nalishlarni belgilab bergan bo‘lsa, Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi[3]. Strategiyada sun’iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar ulushini 10 foizga chiqarish hamda Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida birinchi 50 ta davlat qatoriga kirish kabi maqsadli ko‘rsatkichlar qo‘yilgan. 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son Farmon bilan esa ta’lim tizimida sun’iy intellektni o‘qitish va “ai.gov.uz” milliy portalini ishga tushirish kabi qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi[4].

Huquqiy jihatdan muhim qadam 2026-yil 21-yanvarda qo‘yildi. O‘RQ-1115-son Qonun bilan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga sun’iy intellekt tushunchasi kiritildi

[1]Stanford HAI. The 2026 AI Index Report. Chapter 4: Economy. - Stanford University, 2026. - URL: https://hai.stanford.edu/ai-index/2026-ai-index-report

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son

[3]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.11.2025-y., 06/25/223/1076-son

[4]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.10.2025-y., 06/25/189/0978-son

va inson huquq va erkinliklariga daxldor qarorlarni faqat sun’iy intellekt xulosasiga tayanib qabul qilish taqiqlandi[5]. Biroq davlat organlari foydalanayotgan algoritmlarning ochiqligi, ularni xavf darajasi bo‘yicha tasniflash va algoritm ishtirokida qabul qilingan qarorga e’tiroz bildirish tartibi hali alohida tartibga solinmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi - davlat boshqaruvida sun’iy intellektni tartibga solishning xorijiy modellarini qiyosiy tahlil qilish va O‘zbekiston uchun amaliy takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil va normativ hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Barcha normativ ma’lumotlar rasmiy manbalar - lex.uz milliy bazasi, Yevropa Ittifoqi rasmiy jurnali va tegishli davlatlarning hukumat saytlaridan olindi.

Davlat boshqaruvida sun’iy intellekt: imkoniyat va xatarlar

Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellektning ko‘p qo‘llaniladigan ta’rifi S.Rassel va P.Norvigga tegishli bo‘lib, ular uni atrof-muhitni idrok etib, o‘z maqsadiga erishish ehtimolini oshiradigan harakatlarni tanlovchi agentlarni o‘rganuvchi soha sifatida ta’riflaydi[6]. Milliy qonunchilikda esa sun’iy intellekt inson bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, mustaqil o‘rganish va yechim izlash orqali muayyan vazifani bajarishda inson aqliy faoliyatiga qiyoslanadigan natija olish imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmui sifatida belgilangan[7]. Ikkala ta’rifda ham sun’iy intellekt mustaqil sub’ekt emas, balki inson belgilagan maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Bu davlat boshqaruvi uchun muhim, chunki vosita uchun emas, uni qo‘llagan organ uchun javobgarlik saqlanib qoladi.

Davlat boshqaruvida sun’iy intellekt asosan uch vazifani bajaradi: katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, takroriy ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirish va qaror qabul qilishga ko‘maklashish. OECD tomonidan 2019-yilda qabul qilingan va 2024-yilda yangilangan Sun’iy intellekt tamoyillari ham bu texnologiyani inson huquqlari, shaffoflik, xavfsizlik va javobgarlikni ta’minlagan holda qo‘llashni talab qiladi[8].

[5]O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2026-y., 03/26/1115/0063-son
[6]Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. - 4th ed. - Pearson, 2021. - P. 19.

[8]OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD/LEGAL/0449. – Paris: OECD, 2019 (2024-yilda yangilangan). - URL: https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0449

Biroq amaliyot huquqiy kafolatlarsiz qo‘llanilgan algoritmlar jiddiy oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatdi. Niderlandiyada ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha firibgarlikni aniqlash uchun turli idoralar ma’lumotlarini birlashtirgan SyRI tizimi qo‘llanilgan. Gaaga tuman sudi 2020-yil 5-fevraldagi qarorida ushbu tizimga asos bo‘lgan qonunchilik yetarlicha shaffof emasligi va kafolatlar yo‘qligi sababli Inson huquqlari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasiga (shaxsiy hayotni hurmat qilish huquqi) zid deb topdi[9]. Avstraliyada esa qarzlarni avtomatik hisoblagan “Robodebt” dasturi bo‘yicha tuzilgan Qirollik komissiyasi 2023-yilgi hisobotida dasturning noqonuniy ekanini va minglab fuqarolarga zarar yetkazganini qayd etdi[10].

Fikrimizcha, bu ikki holatdan asosiy xulosa shuki, muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki uni qo‘llashning huquqiy tartibi yo‘qligida. Ikkala holatda ham fuqaro o‘ziga nisbatan qaror qanday mezon asosida chiqarilganini bilmagan va unga samarali e’tiroz bildira olmagan. K.O‘Neil ham algoritmlar o‘qitilgan ma’lumotlardagi noxolislikni katta miqyosda takrorlashi mumkinligini ta’kidlaydi[11]. Demak, davlat boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanish uchun avvalo shaffoflik, tushuntirish olish huquqi va inson nazorati qonun darajasida mustahkamlanishi kerak.

Xorijiy tartibga solish modellarining qiyosiy tahlili

Xorijiy davlatlar tajribasini umumlashtirib, davlat boshqaruvida sun’iy intellektni tartibga solishning to‘rtta asosiy modelini ajratish mumkin. Quyida ularning har biriga xos huquqiy vositalar ko‘rib chiqiladi.

Regulyativ model. Bu yondashuvning eng yirik namunasi Yevropa Ittifoqining 2024-yil 13-iyundagi 2024/1689-son Reglamenti (AI Act) hisoblanadi[12]. Reglament sun’iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga ko‘ra to‘rt toifaga ajratadi: qabul qilib bo‘lmaydigan xavf, yuqori xavf, cheklangan xavf va minimal xavf. Davlat boshqaruvi uchun uchta norma

[9]Rechtbank Den Haag, 5 February 2020, ECLI:NL:RBDHA:2020:1878 (NJCM et al. v. The State of the Netherlands). - URL: https://www.rechtspraak.nl
[10]Royal Commission into the Robodebt Scheme. Report. - Canberra: Commonwealth of Australia, 2023. - URL: https://robodebt.royalcommission.gov.au
[11]O‘Neil C. Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy. - New York: Crown, 2016. - P. 21.
[12]Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // Official Journal of the European Union. - L series, 12.7.2024.

ayniqsa muhim. Birinchisi, 5-moddada fuqarolarni ijtimoiy xulq-atvoriga qarab baholash (ijtimoiy reyting) taqiqlangan. Ikkinchisi, 27-moddaga ko‘ra davlat organlari yuqori xavfli tizimni qo‘llashdan oldin uning asosiy huquqlarga ta’sirini baholashi shart. Uchinchisi, 86-modda yuqori xavfli tizim natijasiga asoslangan qaror ta’sir qilgan shaxsga tushuntirish olish huquqini beradi. Shunga o‘xshash yondashuv Kanadada ham mavjud: 2019-yildan amal qilayotgan Avtomatlashtirilgan qarorlar to‘g‘risidagi direktiva federal organlardan har bir tizimni ishga tushirishdan oldin algoritmik ta’sirni baholashni o‘tkazish va natijasini ochiq e’lon qilishni talab qiladi. Ta’sir darajasi to‘rt bosqichda belgilanadi va daraja qanchalik yuqori bo‘lsa, inson ishtiroki shunchalik majburiy bo‘ladi[13].

Sektoral-innovatsion model. Buyuk Britaniya alohida qonun qabul qilmasdan, 2023-yilgi “A pro-innovation approach to AI regulation” hujjati orqali mavjud soha regulyatorlariga besh umumiy tamoyil asosida sun’iy intellektni nazorat qilish vazifasini yukladi[14]. Yaponiyada 2025-yil 28-mayda qabul qilingan Sun’iy intellekt bilan bog‘liq texnologiyalarni tadqiq etish, ishlab chiqish va qo‘llashni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi qonun ham jarimalar belgilamaydi, uning asosiy maqsadi innovatsiyani qo‘llab-quvvatlashdir[15]. Bu modelning afzalligi - moslashuvchanlik, kamchiligi esa fuqaro huquqlarini himoya qilishning yagona standarti yo‘qligidir.

Davlat-markazlashgan model. Xitoyda sun’iy intellekt rivoji 2017-yilda Davlat kengashi tasdiqlagan Yangi avlod sun’iy intellektini rivojlantirish rejasi asosida davlat tomonidan boshqariladi[16]. Bu model texnologiyani tez joriy etish imkonini beradi, ammo fuqarolarni kuzatish va baholash tizimlari xalqaro hamjamiyat tomonidan inson huquqlari nuqtai nazaridan tanqid qilinadi.

Riskka asoslangan moslashtirilgan model. Bu model regulyativ yondashuvni yengilroq shaklda qo‘llaydi va O‘zbekiston uchun eng yaqin namuna hisoblanadi. Qozog‘istonda 2025-yil 17-noyabrda 230-VIII-son “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi Qonun

[13]Treasury Board of Canada Secretariat. Directive on Automated Decision-Making. - Ottawa, 2019 (2023-yilgi tahrir).
[14]Department for Science, Innovation and Technology. A pro-innovation approach to AI regulation: White Paper. - London: UK Government, 2023.
[15]Act on Promotion of Research and Development, and Utilization of AI-related Technology (Japan), 28 May 2025.
[16]State Council of the People’s Republic of China. New Generation Artificial Intelligence Development Plan (Guofa [2017] No. 35). - Beijing, 2017.

imzolanib, 2026-yil 18-yanvardan kuchga kirdi[17]. Qonun tizimlarni minimal, o‘rtacha va yuqori xavf darajalariga ajratadi, inson ishtirokisiz qaror qabul qiluvchi to‘liq avtonom tizimlarni taqiqlaydi va vakolatli organ sifatida Sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish vazirligini belgilaydi. Janubiy Koreyada 2026-yil 22-yanvardan kuchga kirgan Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi asosiy qonun esa yuqori ta’sirli tizimlar uchun majburiyatlarni sohani rivojlantirish choralari bilan bir hujjatda birlashtirgan va bizneslarga moslashish uchun bir yillik muddat bergan[18].

Modellarning qiyosiy tavsifi quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Davlat boshqaruvida sun’iy intellektni tartibga solish modellari

Model	Davlatlar	Asosiy huquqiy vositalar	O‘zbekiston uchun foydali jihati
Regulyativ	Yevropa Ittifoqi, Kanada	To‘rt darajali xavf tasnifi, ta’sirni baholash, tushuntirish olish huquqi	Fuqaro huquqlarini himoya qilish kafolatlari
Sektoral-innovatsion	Buyuk Britaniya, Yaponiya	Soha regulyatorlari, umumiy tamoyillar, jarimasiz rag‘batlantirish	Innovatsiyaga ortiqcha to‘siq qo‘ymaslik
Davlat-markazlashgan	Xitoy	Davlat rejasi va moliyalashtirishi, markaziy nazorat	Tez joriy etish, ammo huquqiy kafolatlar zaif
Riskka asoslangan moslashtirilgan	Qozog‘iston, Janubiy Koreya	Uch darajali tasnif, avtonom qarorlarni taqiqlash, rivojlantirish choralari	Huquqiy tizimi yaqin namuna, himoya va rivojlanish muvozanati

Alohida qayd etish kerak bo‘lgan tajriba - Niderlandiyaning Algoritmlar reyestri. SyRI ishidan so‘ng hukumat 2022-yil 21-dekabrda davlat organlari foydalanadigan algoritmlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bir joyda e’lon qiluvchi ochiq reestrni ishga tushirdi. 2025-yil iyul holatiga ko‘ra reestrda 1000 tadan ortiq algoritm e’lon qilingan[19]. Fikrimizcha, bu tajriba algoritmik shaffoflikni katta xarajatsiz ta’minlashning amaliy yo‘lini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston qonunchiligining hozirgi holati va bo‘shliqlar

2026-yilgacha O‘zbekistonda sun’iy intellektga oid munosabatlar asosan strategik

[17]Qozog‘iston Respublikasining 2025-yil 17-noyabrdagi 230-VIII-son “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi Qonuni. - URL: https://adilet.zan.kz
[18]Framework Act on the Development of Artificial Intelligence and Establishment of Trust (Republic of Korea). - 2026-yil 22-yanvardan kuchga kirgan. - URL: https://www.law.go.kr
[19]Government of the Netherlands. Algorithm Register of the Dutch government.

hujjatlar bilan tartibga solingan edi. O‘RQ-1115-son Qonun bu holatni qisman o‘zgartirdi. Qonun bilan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga sun’iy intellekt ta’rifi, uni axborot resurslari va axborot tizimlarida qo‘llash qoidalari hamda vakolatli davlat organining vakolatlari kiritildi. Eng muhim norma shuki, huquqiy oqibat keltirib chiqaradigan yoki inson huquq va erkinliklariga daxldor qarorlar faqat sun’iy intellekt asosidagi axborot tizimlari xulosasiga asoslanishi mumkin emas. Shuningdek, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga sun’iy intellekt yordamida shaxsga doir ma’lumotlarga qonunga xilof ishlov berganlik uchun javobgarlik qo‘shildi[20].

Bu normalar xalqaro amaliyotda keng e’tirof etilgan “inson nazorati” tamoyiliga mos keladi. Shunday bo‘lsa-da, fikrimizcha, amaldagi tartibga solishda quyidagi bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, sun’iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga ko‘ra tasniflash mavjud emas. Natijada soliq tekshiruvi uchun xavfli soliq to‘lovchilarni tanlovchi tizim ham, oddiy ma’lumot beruvchi chat-bot ham bir xil huquqiy rejimda qoladi.

Ikkinchidan, inson ishtiroki majburiy deb belgilangan bo‘lsa-da, fuqaroning algoritm ishtirokida qabul qilingan qaror haqida xabardor bo‘lish, uning sababini tushuntirish talab qilish va e’tiroz bildirish tartibi alohida belgilanmagan. 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun[21] ma’lumotlarni himoya qiladi, lekin Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamentining 22-moddasidagi kabi avtomatlashtirilgan qarorga oid alohida kafolatni nazarda tutmaydi[22].

Uchinchidan, davlat organlari qaysi sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanayotgani haqida yagona ochiq ma’lumot manbai yo‘q. Bu jamoatchilik nazoratini qiyinlashtiradi.

To‘rtinchidan, tizimni joriy etishdan oldin uning fuqarolar huquqlariga ta’sirini baholash talabi mavjud emas. Yuqorida ko‘rib chiqilgan Yevropa Ittifoqi va Kanada tajribasida aynan shu bosqich xatolarning oldini olishning asosiy vositasi hisoblanadi.

[21]O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2026-y., 03/26/1174/0920-son

[22]Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (General Data Protection Regulation), Article 22 // Official Journal of the European Union.- L 119, 4.5.2016.

O‘zbekiston uchun gibrid model va takliflar

Fikrimizcha, O‘zbekiston uchun birorta xorijiy modelni to‘liq ko‘chirish maqsadga muvofiq emas. Mamlakatimiz bir vaqtning o‘zida ikki vazifani hal qilishi kerak: fuqarolarni algoritmik xatolardan himoya qilish va endigina shakllanayotgan sun’iy intellekt bozorini ortiqcha talablar bilan cheklab qo‘ymaslik. Shu sababli quyidagi elementlarni birlashtirgan gibrid modelni taklif qiladi: Qozog‘iston qonunining tuzilishi (huquqiy an’ana va rivojlanish darajasi yaqin), Yevropa Ittifoqi va Kanadaning fuqaro huquqlarini himoya qilish kafolatlari, Yaponiya va Janubiy Koreyaning innovatsiyani rag‘batlantirish yondashuvi hamda Singapurning regulyator va biznes hamkorligiga asoslangan ijro madaniyati. Singapurda bu yondashuv Sun’iy intellektni boshqarishning namunaviy asosi va kompaniyalar o‘z tizimlarini ixtiyoriy sinovdan o‘tkazadigan AI Verify vositasi orqali amalga oshiriladi[23].



Ushbu model asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, O‘RQ-1115-son Qonun bilan yaratilgan asos ustiga “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi alohida qonun qabul qilish yoki “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunni tegishli bob bilan to‘ldirish. Unda tizimlarni uch xavf darajasiga ajratish, ijtimoiy reyting va fuqarolarni yashirin manipulyatsiya qiluvchi tizimlarni taqiqlash, yuqori xavfli tizimlar uchun esa majburiy talablar belgilanishi lozim. Jarimalar miqdori Yevropa Ittifoqidagidek yuqori emas, balki mahalliy kompaniyalar imkoniyatiga mos belgilanishi kerak, aks holda qonun innovatsiyaga to‘siq bo‘lib qoladi.

Ikkinchidan, “Ochiq algoritm” nomli davlat algoritmlari reestrini yaratish. Niderlandiya tajribasi asosida har bir davlat organi o‘zi foydalanayotgan sun’iy intellekt tizimining maqsadi, qo‘llanish sohasi, qarorga ta’sir darajasi va audit natijalarini ushbu reestrda e’lon qilishi kerak. Bundan tashqari, platformaga “Mahalla 2.0” modulini qo‘shish maqsadga muvofiq. Unda fuqaro murojaatini mahalla orqali kiritadi, platforma uni tegishli organga yo‘naltiradi va qaror qaysi algoritm asosida chiqarilganini ko‘rsatadi. Bunday yechim an’anaviy mahalla institutini saqlagan holda uni raqamli boshqaruvga bog‘laydi.

[23]Infocomm Media Development Authority, PDPC. Model Artificial Intelligence Governance Framework. - 2nd ed. - Singapore, 2020; AI Verify Foundation.

Uchinchidan, fuqaroning avtomatlashtirilgan qarorlar bo‘yicha huquqlarini qonunda aniq belgilash. Fuqaro qaror qabul qilishda sun’iy intellekt qo‘llanilgani haqida xabardor qilinishi, qarorning asosiy sabablari haqida tushunarli izoh olishi va qarorni inson tomonidan qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, yuqori xavfli tizimni joriy etishdan oldin Kanadadagi kabi ta’sirni baholashni o‘tkazish va natijani ochiq e’lon qilish majburiyati kiritilishi zarur.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt sohasida muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi mustaqil organ - Sun’iy intellekt milliy agentligini tashkil etish. Agentlik tizimlarni xavf darajasi bo‘yicha baholash, audit o‘tkazish, fuqarolar shikoyatlarini ko‘rib chiqish va har yili Oliy Majlisga ochiq hisobot taqdim etish vakolatiga ega bo‘lishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun tizimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish vakolatini Adliya vazirligiga berish maqsadga muvofiq. Bunda agentlik texnik baholashni, Adliya vazirligi esa huquqiy rasmiylashtirishni amalga oshiradi. Qozog‘istonda bu vazifalar alohida vazirlikka yuklangani ham sohani institutsional jihatdan mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanish samaradorlikni oshirish bilan birga fuqaro huquqlari uchun yangi xatarlarni ham keltirib chiqaradi. SyRI va “Robodebt” holatlari bu xatarlar asosan shaffoflik va huquqiy kafolatlar yetishmasligidan kelib chiqishini tasdiqlaydi. Xorijiy tajribada bu muammo xavfga asoslangan tasnif, ta’sirni oldindan baholash, tushuntirish olish huquqi va algoritmlar reestri orqali hal qilinmoqda.

O‘zbekiston O‘RQ-1115-son Qonun orqali inson nazorati tamoyilini mustahkamlab, muhim qadam qo‘ydi. Navbatdagi bosqichda bu tamoyilni amalda ishlaydigan mexanizmlar bilan to‘ldirish lozim. Taklif qilgan gibrid model - Qozog‘iston tuzilishi, Yevropa Ittifoqi va Kanadaning himoya kafolatlari, Yaponiya va Koreyaning innovatsion yondashuvi hamda Singapurning ijro madaniyatini birlashtirish - O‘zbekistonga fuqarolar ishonchini saqlagan holda sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga xavfsiz joriy etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // Official Journal of the European Union.

2. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (General Data Protection Regulation) // Official Journal of the European Union.

3. OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD/LEGAL/0449.

4. Qozog‘iston Respublikasining 2025-yil 17-noyabrdagi 230-VIII-son “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. Framework Act on the Development of Artificial Intelligence and Establishment of Trust (Republic of Korea), 2026.

6. Act on Promotion of Research and Development, and Utilization of AI-related Technology (Japan), 2025.

7. Treasury Board of Canada Secretariat. Directive on Automated Decision-Making. - Ottawa, 2019.

8. Rechtbank Den Haag, 5 February 2020, ECLI:NL:RBDHA:2020:1878.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2026-y., 03/26/1115/0063-son.

10. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2026-y., 03/26/1174/0920-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.10.2025-y., 06/25/189/0978-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.11.2025-y., 06/25/223/1076-son.

14. O‘Neil C. Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy. - New York: Crown, 2016.

15. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. - 4th ed. - Pearson, 2021.

16. Department for Science, Innovation and Technology. A pro-innovation approach to AI regulation: White Paper. - London, 2023.

17. Infocomm Media Development Authority, PDPC. Model Artificial Intelligence Governance Framework. - 2nd ed. - Singapore, 2020.

18. Royal Commission into the Robodebt Scheme. Report. - Canberra: Commonwealth of Australia, 2023.

19. Stanford HAI. The 2026 AI Index Report. - Stanford University, 2026.

20. State Council of the People’s Republic of China. New Generation Artificial Intelligence Development Plan. - Beijing, 2017.

21. https://lex.uz